



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SHAMSIY YIL HISOBINING IFODALANISHI

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti, doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida shamsiy kalendar va yil hisobi tizimining til sathi hamda xalq dunyoqarashida ifodalanishi tadqiq etilgan. Ishda yil fasllari, oylar, o‘n ikki yillik burj doirasi va tabiat hodisalari bilan bog‘liq maqollarning lingvokognitiv hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kuzatishlar natijasida shamsiy yil hisobiga oid leksik birliklarning o‘zbek tili paremiologik tizimidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shamsiy kalendar, paremiologiya, lingvokulturologiya, o‘zbek xalq maqollari, burjlar, chilla, yozgi va qishki quyosh turishi, lisoniy manzara.

ВЫРАЖЕНИЕ СОЛНЕЧНОГО ЛЕТОСЧИСЛЕНИЯ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Марданова Дилшоода Садриддин кизи
Самаркандский государственный педагогический институт, докторант

Аннотация

В данной статье исследуется выражение солнечного календаря и системы летоисчисления в узбекских народных пословицах на языковом уровне и в мировоззрении народа. В работе анализируются лингвокогнитивные и семантические особенности пословиц, связанных с временами года, месяцами, двенадцатилетним зодиаком и природными явлениями. В результате наблюдений освещена роль лексических единиц, относящихся к солнечному летоисчислению, в паремиологической системе узбекского языка.

Ключевые слова: солнечный календарь, паремиология, лингвокультурология, узбекские народные пословицы, созвездия, чилла, летнее и зимнее солнцестояние, языковая картина.

THE EXPRESSION OF THE SOLAR CALENDAR IN UZBEK FOLK PROVERBS

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi
Samarkand State Pedagogical Institute, Doctoral Student

Abstract

This article examines the expression of the solar calendar and year-counting system in Uzbek folk proverbs at the linguistic level and in the worldview of the people. The work analyzes the linguocognitive and semantic features of proverbs related to the seasons, months, the twelve-year zodiac and natural phenomena. As a result of observations, the role of lexical units related to the solar calendar in the paremiological system of the Uzbek language is highlighted.

Keywords: solar calendar, paremiology, linguoculturology, Uzbek folk proverbs, zodiac signs, chilla, summer and winter solstices, linguistic landscape.

Xalq og‘zaki ijodining muhim janri bo‘lgan maqollar millatning asriy tajribalari, turmush tarzi va dunyoqarashini o‘zida ixcham shaklda jamlagan lisoniy xazinadir. O‘zbek xalqining an‘anaviy xo‘jalik hayoti, ayniqsa, dehqonchiligi va chorvachiligi bevosita shamsiy (quyosh) yil hisobi va tabiat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Quyosh kalendari asosida shakllangan oylar va burj nomlarining maqollarda aks etishi tilshunoslikda milliy mentalitet va lisoniy dunyo manzarasini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Yil hisobi, fasllar almashinuvi, muayyan oylar yoki burjlar (masalan, Hamal, Javzo, Saraton) bilan bog‘liq tajribalar vaqt o‘tishi bilan turg‘un jumalarga — maqollarga aylanib borgan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek tilshunosligi va folklorshunosligida vaqt konseptining (yil hisobi misolida) lisoniy-madaniy xususiyatlarini tizimli tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi — maqollarda yil hisobi leksikasining semantik guruhlarini aniqlash va ularning ko‘chma ma‘nolarini ochib berishdir.

2. Materiallar va metodlar (Metodologiya). Tadqiqotning asosiy materiali sifatida “O‘zbek xalq maqollari” [7] to‘plamidagi taqvimga oid maqollar tanlandi va yil hisobi, vaqt, fasllar hamda quyosh taqvimi (burjlar)ga oid 100 dan ortiq paremiologik birliklar saralab olindi. Shuningdek, maqollardagi xulosalarni ilmiy jihatdan tadqiq etish uchun Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” [1] asari, fizika va astronomiya fanlariga oid o‘quv qo‘llanmalar [3; 5], so‘zlarning asl ma‘nolarini izohlash

uchun esa izohli lugʻatlardan [6; 8] foydalanildi.

Ishda quyidagi ilmiy metodlar qoʻllanilgan: **semantik tahlil metodi** — maqollar tarkibidagi vaqtga oid soʻzlarning lugʻaviy (denotativ) va koʻchma (konnotativ) maʼnolarini aniqlash uchun; **statistik metod** — maqollarda qaysi fasl yoki oy nomlari koʻproq uchrashini hisoblash uchun; **lingvokulturologik tahlil** — yil hisobiga oid birliklarning oʻzbek milliy mentaliteti bilan bogʻliqligini oʻrganish uchun.

3. **Natijalar.** Maqol bir qomusiy asar boʻlib, unda xalq yaratgan bilimlarga oid tushunchalar qorishib keladi [4:294]. Darhaqiqat, insonlarning asrlar davom etgan hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining ixcham va obrazli ifodasi boʻlmish xalq maqollarida xalqning tarixi, dunyoqarashi, urf-odati, anʼanalari, qadriyatlari, diniy aqidalar bilan birga oʻsha xalq yashaydigan yurtning geografik muhiti, iqlim sharoiti, hayvonot-u oʻsimlik dunyosi va, albatta, taqvim ham aks etadi. Uzoq yillik kuzatishlar mahsuli boʻlmish “Hamal keldi — amal keldi”, “Dalv kirdi — davr kirdi”, “Mezon chiqib, aqrab kirsas — qish”, “Savr boʻlmay, sayron boʻlmas, Sayron boʻlmay, ayron boʻlmas”, “Sunbulada suv soviydi, Mizonda — kun”, “Javzoning yarmida suv tagida arpa pishar” kabi paremiyalar xalqimiz yuritgan yil hisobidan yorqin nishonalardir.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek xalq maqollarida shamsiy yil hisobi tizimli ravishda uchta asosiy yoʻnalishda — dehqonchilik ishlari, ob-havo bashoratlari va inson hayotining mavsumiy sikli shaklida ifodalangan.

1. Dehqonchilik va qishloq xoʻjalik ishlarining shamsiy oylarga bogʻliqligi: Maqollar shamsiy yil hisobining fasllar va tabiat oʻzgarishlari bilan chambarchas bogʻliqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yer haydash, ekin ekish va hosilni yigʻib-terib olish mavsumlari shamsiy taqvimga muvofiq belgilanadi: “Hamalda ekin ekma, zahmat chekib koʻp yigʻlama”. (Bunda mart oxiri — aprel boshlarida yer hali toʻliq isib ulgurmagan uchun ekin ekish kechikishi yoki xato boʻlishi taʼkidlanadi). “Savr ek, savr boʻlmasa, javzo ek”. (Bahar oyining ikkinchi va uchinchi oʻn kunliklarida ekish ishlarini qizgʻin olib borish kerakligi, aks holda hosil kechikishi haqida xalqona amaliy koʻrsatma).

2. Ob-havo va meteorologik hodisalarning ifodalanishi: Shamsiy yilning fasllari va oylari xalq ogʻzaki ijodida ob-havoni oldindan aytib berish vositasi boʻlgan. “Saratoning issigʻi — qishning oshigʻi”. (Yozning eng issiq davri hisoblangan Saraton oyida qilingan mehnat qishdagi farovonlikni belgilab berishi aytilgan).

3. Yillik davrlar va quyosh taqvim sikllari: Shamsiy hisob asosida qurilgan maqollar inson va tabiat uygʻunligini, yil davomidagi shaxsiy mehnat taqsimotini yoritadi: “Mezon chiqib, aqrab kirsas — qish”.

Natijalarning xulosasi shundan iboratki: xalq maqollarida aks etgan shamsiy yil hisobi faqatgina vaqt oʻlchovi emas, balki asrlar davomida shakllangan agronomik, meteorologik va ijtimoiy-amaliy tajribalar majmuyidir. Maqollar quyoshning holati, fasllar almashinuvi va shunga bogʻliq amaliy koʻrsatmalarni oʻz ichiga oladi.

4. **Muhokama.** Dunyo xalqlarining barchasi juda qadimdan oʻzlarining oʻziga xos vaqtni oʻlchash tizimiga, yil hisobiga amal qilib kelishgan. Hali yozuv paydo boʻlmasdan, ajdodlarimiz koʻk va yerda vaqtning maʼlum bir siklda uzluksiz aylanib qaytishini oʻzlarining kuzatishlari natijasida aniqlab, avlodlarga ogʻzaki shaklda yetkazishgan. Olam yoritqichlari — Quyosh va Oy azaldan insonlarga yil hisobini yuritishda asos vazifasini bajarib kelgan. Koʻpchilik xalqlar orasida ikki xil: quyosh (shamsiy) va oy (qamariy) taqvim amal qilgan. Shamsiy (“shams” arabcha quyosh maʼnosini bildiradi) taqvim quyosh bilan Yer munosabatiga bogʻliq boʻlsa, qamariy (“qamar” arabchada oy demakdir) taqvim Oyning fazalariga, toʻlishib kamayishiga va maʼlum yulduzlar bilan oʻzaro munosabatiga asoslangan. “...Shunday qilib, odamlar ikki xil yil — shamsiy (quyosh) yil va qamariy (oy) yilni ishlatadigan boʻlganlar. Bu ikkisidan boshqa yoritgichlarni yil hisobida ishlatmaganlar. Bunga sabab, birinchidan, ularning harakatlari sezilmas, koʻz bilan koʻrib boʻlmaydi, faqat kuzatish quroli va tadqiq orqali koʻriladi. Ikkinchidan, bu ikki yoritgich harakatlarining vaqt, havo, oʻsimlik va hayvonlar ahvoliga, bulardan boshqa unsurlar boʻlaklarining oʻzgarib, biri ikkinchisiga aylanishiga taʼsiri bor. Chunki bu ikkisi katta, nuri, koʻrinishi bilan boshqa yoritgichlardan ajralib turadi va ikkovi bir-biriga oʻxshaydi” [1:47].

Xalq maqollari tarkibida kelgan hamal, dalv, mezon, aqrab, savr, sunbula, javzo soʻzlari vaqtga ishora boʻlib, Sharq kalendari boʻyicha shamsiy oy nomlarini bildiradi. Mazkur shamsiy oylarning nomlari esa yulduz turkumlari — burj nomlaridan olingan. “Burj” soʻzi arabcha, astronomiyaga oid tushuncha boʻlib, Quyoshning yillik harakat yoʻli boʻylab joylashgan oʻn ikkita yulduz turkumining majmuyi va ularning har biri (Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv)ni ifodalaydi [OʻTIL, 1-jild]. Qadim Sharqda kishilar yoritqichlarga qarab moʻljal olish uchun osmonning maʼlum qismida joylashgan yorugʻ yulduzlarni alohida toʻdalarga ajratib, ularga yulduz turkumlari deb nom berganlar. Quyosh ana shu yulduz turkumlari boʻylab gʻarbdan sharqqa tomon siljib, osmon sferasini bir

yilda bir marta to'liq aylanib chiqadi [5:12]. Bu siljish har sutkada salkam 1° bo'lib, Quyoshning bir burjdan to'liq o'tishi uchun ketgan muddat bir oyga tengdir (osmon sferasi 360°). Shu sababdan Quyosh Hamal burjida bo'lganida shamsiy (quyosh) yil hisobi bo'yicha mintaqamizda Hamal oyi hukm suradi.

Shamsiy yil hisobi bo'yicha yilning boshlanishi etib kun va tun teng bo'ladigan vaqt – 21-mart qabul qilingan. Bu esa shamsiy hisob bo'yicha Hamal oyiga to'g'ri keladi. “Hamal keldi – amal keldi” maqoli ham xalqning asriy tajribasiga asoslangan bo'lib, bahor fasli qishki uyquni yengib o'tib, mehnat (amal) davri kelganining ifodasidir. Hamal – quyosh yili hisobida birinchi oyning nomi (mart) [ANATIL, 4-jild, 147-bet]. Shunga ko'ra, “hamal” leksemi tarkibidan “yil hisobi”, “birinchilik”, “tenglik” semalarini ajratishimiz mumkin. Mazkur paremiya tarkibidagi “hamal keldi” jumlasini nafaqat bahorning, yangi yilning, balki ko'chma ma'noda yangi hayotning boshlanishi va jonlanish jarayonini ham ifodalaydi. Hamal arabchada “qo'y”, “qo'zi” degan ma'noni bildiradi. Mifologiyadan bizga ma'lumki, qo'y yangilanish, qayta tiklanish va abadiy hokimiyat belgisi hamdir. Yunon afsonalaridagi Yason va argonavtlar qidirgan “Oltin mo'yna” ham “abadiylik” ramzini ifodalagan [2:66].

Yilning to'rt fasli shamsiy taqvim asosida maqollarda o'ziga xos semantik yuk tashkil etadi. Masalan: “Qish chillasida qor yog'sa, yoz chillasida don yog'ar”. Bu yerda “chilla” (forscha: < چهل روزی — چله/چله — “qirq”) — 1) yilning eng issiq yoki eng sovuq 40 kuni. Qish chillasi yoki qishki chilla 25-dekabrda 5-fevralgacha bo'lgan eng sovuq qirq kun. Yoz chillasi yoki yozgi chilla 25-iyundan 5-avgustgacha bo'lgan eng issiq 40 kunlik davrni lisoniy ifodalaydi. Astronomiyada “chilla” “yozgi quyosh turishi” va “qishki quyosh turishi” nuqtalari deyiladi. Ekliptikaning osmon shimoliy yarim sharida eng katta og'ishga (+23°26') ega bo'lgan nuqtasi yozgi quyosh turishi nuqtasi deyilib, bu nuqtada Quyosh 22-iyunda, janubiy yarim sharda eng katta og'ishga (-23°26') ega bo'lgan nuqtasi esa qishki quyosh turishi nuqtasi deyilib, unda Quyosh 22-dekabrda bo'ladi [3:15].

Dehqon va chorvadorlar yilni faqatgina to'rt faslga ajratibgina qolmasdan, hisobni oylarga bo'lib juda aniq yuritganlar. Jumladan, “Savr bo'lmay, sayron bo'lmas, Sayron bo'lmay, ayron bo'lmas” maqolidagi “savr” – ast. o'n ikki burjning biri. Shamsiy yil hisobida ikkinchi oyning nomi (22-aprel – 21-may) [O'TIL 3-jild, 417-bet]. Arabchada “buqa”, “ho'kiz” degan ma'nolarni bildiradi. Bahor faslining ayni qizigan, ko'katlar ko'kargan davri. “Sayron” so'zi esa sayr qilish, dalaga chiqish, tabiat qo'ynida hordiq chiqarish va chorvani yam-yashil yaylovlarga haydash kabi lug'aviy ma'nolarni beradi. “Ayron” esa qatidan tayyorlanadigan chanqoqbosdi ichimlik. Ushbu maqoldagi birliklar sabab-oqibat munosabatiga qurilgan bo'lib, bir-birini taqozo etadi: ayron bo'lishi uchun sayron, sayron bo'lishi uchun savr bo'lishi kerak. Savr, sayron, ayron so'zlaridagi fonemalar takrori paremiyaning ichki ohangdorligini yuzaga keltirgan. Bu esa barqaror birlikning tilda uzoq vaqt turg'un saqlanishini ham ta'minlagan. Yil hisobiga oid leksemaning matnda faqatgina to'g'ri nominal semasidan tashqari differensial semasi ham faollashgan. Savrning “buqa, ho'kiz” ma'nosi, sayron “yam-yashil daladagi chorva”, ayron “dastlabki manbayi sut bo'lgan ichimlik” semalari bir semantik guruhda birlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek xalq maqollarida shamsiy yil hisobining ifodalanishi millatning lisoniy dunyo manzarasida vaqt va makon tushunchalari qanchalik chuqur o'rin olganini ko'rsatadi. “Hamal”, “Hut”, “Saron”, “chilla” kabi leksik birliklar paremiyalar tarkibida semantik jihatdan boyib, nafaqat vaqtni, balki insoniy munosabatlar, mehnat va hayotiy tajribalarni ifodalashga xizmat qilgan. Ajdodlarimizning ko'p ming yillik astronomik va iqlimiy kuzatuvlari umumlashmasi bo'lgan maqollarni bu kabi lingvistik tadqiq qilish o'zbek tili paremiologiyasining milliy-madaniy tabiatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar (Osor al-boqiya). – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 648 b.
2. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. – 352 b.
3. Mamadazimov M. Umumiy astronomiya: fizika va astronomiya ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 276 b.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiqqa, 2010. – 368 b.
5. Zokirov M., Bekmirzayeva X. Umumiy astronomiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 190 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati (I–V jildlar). – Toshkent, 2006.
7. O'zbek xalq maqollari / tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; mas'ul muharrir Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati (I, II, III, IV jildlar). – Toshkent: Fan, 1983.